



TALABALARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xayitov S. T.

*Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
Qoraqalpog‘iston filiali mustaqil tadqiqotchisi*

Tayanch so‘zlar: talaba, vatan, vatanparvar, vatanparvarlik tarbiyasi, pedagogik faoliyat.

Ключевые слова: ученик, родина, патриот, патриотическое воспитание, педагогическая деятельность.

Key words: student, homeland, patriot, patriotic education, pedagogical activity.

Резюме:

Mazkur maqolada talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hamda pedagogik jarayonda talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirishning axloqiy mezonlari ilmiy tahlillar natijasida izohlangan.

Резюме:

В данной статье представлены социально-психологические особенности совершенствования процессов патриотического воспитания студентов а также этические критерии совершенствования системы патриотического воспитания студентов в педагогическом процессе в результате научного анализа.

Summary:

This article presents the socio-psychological features of improving the processes of patriotic education of students as well as ethical criteria for improving the system of patriotic education of students in the pedagogical process as a result of scientific analysis.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar va islohotlar olib borilmoqda. Mazkur islohotlar jamiyatning barcha sohalarini qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Islohotlarning ijodkori, harakatga keltiruvchisi, amalga oshiruvchisi hazrati insondir. Bugungi kunda hazrati insonning vatanparvar va yetuk mutaxassis bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, zamonaviy sharoitda vatanparvarlik tarbiyasini yanada yuksaltirish mamlakatimiz har bir fuqarosining muqaddas burchidir. Zero, «bugungi global makonda, qarama-qarshiliklar, inson, ayniqsa, yoshlarning ongi va qalbini

egallash uchun kurash nihoyatda kuchaygan hozirgi sharoitda yosh avlod tarbiyasining oʻrni va ahamiyati har qachongidan ham ortib borayotgani hech kimga sir emas. Siz bilan biz yashayotgan zamonning achchiq haqiqati shundan iboratki, katta hayot ostonasiga qadam qoʻyayotgan yoshlarni agar sogʻlom kuchlar toʻgʻri yoʻlga boshlamasa gʻarazli niyatlar bilan yurgan buzgʻunchi kuchlar oʻz ortidan ergashtirib ketadi» [2;136]. Shunday ekan, yoshlarda yuksak vatanparvarlik sifatlarini tarbiyalash orqali ularda buzgʻunchi kuchlarga qarshi tura olish koʻnikmalarini ham shakllantirish vazifalari yuzaga kelmoqda.

Talabalarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil va tadqiq etishdan avval vatanparvarlik kategoriyasining mazmun-mohiyatini ochib berish maqsadga muvofiq boʻladi.

Pedagogik jarayonda talabalarni vatanparvarlikni, muhabbat tuygʻusi chinakam eʼtiqodga, chinakam aqidaga aylanishi uchun ularda tarixiy shaxslarni vatanparvarligi, vatan olidagi qahramonligi oʻrgatish, psixologik taʼsir koʻrsatib mardlik va jasorat sifatlarini rivojlantirish mumkin. Misol uchun, keksa Shayx Najmiddin Kubro oʻzi bosh boʻlib, qasoskor xalqdan lashkar tuzib, Urganch fuqarosini dushmanga qarshi jangga safarbar qiladi. Ikki tomon oʻrtasida qattiq, beomon jang boʻladi. Shunda Shayx bayroqni ushlagan holda to soʻnggi nafasiga qadar uni qoʻlda mahkam ushlab boradi. Bayroqni olish uchun Shayxning barmoqlarini bir-bir kesib olishga majbur boʻlgan ekanlar.

Vatanning kuch-qudrati, sogʻlomligi, yengilmasligi, eʼtiqodi, jismoniy salomatligi yoshlarimizning harbiy vatanparvarligi bilan bogʻliqdir. Amir Temur bobomiz armiya tuzishda masalaning bu tomoniga katta eʼtibor qaratganlar: «Cherik (qoʻshin, harbiy tuzilma) tuzib, navkar olmoqda uch qoidaga amal qildim: birinchidan – yigitning kuch-quvvatiga; ikkinchidan – qilichni oʻynata olishiga; uchinchidan – aql-zakovati-yu, kamolotiga. Shu uch fazilat jamuljam boʻlsa, navkarlik xizmatiga oldim. Negakim, kuch-qudratli yigit har qanday qiyinchiliklarga, azob-uqubatlarga chidamli boʻladi, qilich oʻynata oladigan kishi raqibini magʻlub eta oladi, oqil navkar har joyda aql-idrokini ishga solib, mushkulotni bartaraf etmogʻi mumkin» [3;54].

Oʻzbek xalqi maʼnaviy-axloqiy merosida vatanparvarlik gʻoyalarining ahamiyatini tadqiq etgan olim K.Usmonov tahlillariga koʻra, vatanparvarlik yuksak axloqlikni namoyon etadigan tuygʻu boʻlib, uning mazmuni vatanga mehr qoʻyish, vatanni himoya qilish, uning havfsizligi va yaxlitligini taʼminlashga bevosita va bilvosita masʼullik orqali mustahkamlanadi. Shuning uchun ham chinakam vatanparvarlik oʻzidan oilani, oiladan Vatanni, Vatandan insoniyatni ustun qoʻyishi talab etadi. Ushbu olimlar fazilatning muhim jihati shundaki, undagi hissiyotlar tor vatanparvarlik doirasiga sigʻmaydi, undan



«chetga chiqadi». Vatanparvarlik faqat Vatanni sevish yoki yaxshi ko‘rish bilan cheklanmaydi, balki bor kuchi va aql-idrokini Vatanni himoya qilish bilan bog‘liq muammolarni hal etishga safarbar qilishda namoyon bo‘ladi [4;30].

Talabalarda vatanparvarlik ruhini shakllantirish uchun badiiy ta‘sir vositasidan, jahonning durdona asarlaridan ham unumli foydalanish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Misol uchun, vatanparvarlikni yuksak axloqiy fazilat sifatida tavsiflay olgan Rasul Hamzatov asarlaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Avar xalqining mashhur shoiri Rasul Hamzatov «Mening Dog‘istonim» asarida Vatan tuyg‘usi, millat ravnaqi, vatanparvarlik haqida ibratli hikoya qiladi. «Odamlarni ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga da'vat bilan shoir o‘z yurtiga murojaat etadi: «Mana men huzuringga otam kamchiliklarini aytgan olamdan keldim. Men ham bu dunyoda kezib juda ko‘p ajib narsalarni ko‘rdim. Qaysi biriga qarashni bilmay ko‘zlarim o‘ynadi. Nigohimni bitta chiroyli ehromdan uzganimda undan ham chiroyli ehromga ko‘zim tushdi, go‘zal chehralarga qaradim, lekin shuni aniq bilardim, ular qanchalik jozibali bo‘lmasin, ertaga ulardan ham jozibaliroqlarini uchrataman... Dunyoning cheki-chegarasi yo‘q ekan. Meni Hindistonning ibodatxonalari, Misrning ehromlari, Italiyaning qadim yodgorliklari kechirsinlar, meni Amerika shoh ko‘chalari, Parij xiyobonlari, Angliya bog‘lari, Shveytsariya tog‘lari ham kechirsinlar, sizlarni qanchalik yoqtirmay yuragim bir maromda urdi, boshim aylanib qoladigan darajada aqli hushimdan ayrilmadim. Hozir esa, qoyalar etagida joylashgan yetmishta xonadonni ko‘rishim bilan yuragim o‘ynab ketdi, hatto ko‘krak qafasimga sig‘may qovurg‘alarimga botyapti. Xuddi kasal yoki mast bo‘lgan odamday ko‘z oldim qorong‘ilashyapti, boshim aylanyapti! Nahotki, shu kichkinagina ovulim Venetsiyadan, Qohiradan yoki Kalkuttadan go‘zal bo‘lsa? Nahotki, bir bog‘ o‘tin quchoqlab ketayotgan avar ayoli baland bo‘yli, skandinaviyalik oppoq qizlardan go‘zal bo‘lsa?! Men yechinib toshlarga urilib tomchilar sochayotgan sharshara tagida turaman. Oqim toshdan-toshga urilib sakkizga bo‘linadi, keyin qo‘shilib boshimga, yelkamga, qo‘llarimga quyiladi, qanday maza! Bu rohatijon muzday suv oldida Parijning «Qirol saroyi» mehmonxonasi vannasidagi plastmassa sepkichdan oqadigan ilmiliq suv nima bo‘libdi? Buloqdan otilayotgan suv kun bo‘yi quyosh nuridan qizigan toshda ilydi. Tog‘dagi bu toshli vanna oldida Londonning «Metropol» mehmonxonasidagi moviy vanna oddiy tog‘ora xolos». Bundan tashqari vatanparvarlik yuksak darajada tarannum etilgan asarlar bilan tanishtirish g‘am talabalarda yuksak vatanparvarlik sifatini, ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

Buyuk mutafakkir olimlarimizning vatanparvarlik to'g'risidagi g'oyalari, o'gitlarini yoshlarga singdirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'rifatparvar ajdodimiz Alixonto'ra Sog'uniy «Keraklicha din ilmini o'qish hammaga farz bo'lganidek, Vatani va millatini saqlash uchun zamonaviy fan ilmini o'qib bilishlik ham farzdir... Shu sababdan tushungan Vatan o'g'lon qizlarimiz zamonaviy har ilm-hunarni asosi bilan yaxshi tushunib, imkoniyat boricha bilib o'zlashtirishga boshqalardan ortiqroq kirishmoqlari lozimdur» [1;76-77].

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, vatanparvarlik tarbiyasi umumiy talqindagi vatanparvarlikdan qator jihatlari bilan farq qiladi. Tadqiqotchi G. Ergasheva fikriga ko'ra:

- vatanparvarlik tarbiyasi O'zbekiston fuqarolarini Vatanni qurol bilan himoya qilishga tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan;
- vatanparvarlik asosini O'zbekiston Qurolli Kuchlarining udumlari tashkil etadi, vatanparvarlik tarbiyasi asosini esa harbiy udum bilan bir qatorda mehnat udumlari tashkil qiladi;
- vatanparvarlik tarbiyasi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga nisbatan hurmat va g'ururlanish, harbiy xizmatchi bo'lishga xohish va intilish hamda qo'lida qurol bilan mustaqil Vatanni himoya qilish hissini uyg'otadi. Vatanparvarlik tarbiyasi esa Vatanga sodiqlik, O'zbekiston fuqarosi o'z davlatining buyukligini, kuchliligini mustahkamlash, mustaqilligini himoya qilish hissini rivojlantiradi [2;20].

Ayrim tadqiqotchilar fikricha, vatanparvarlik tarbiyasidagi kompleks yondashuv maqsadga yo'naltirilganlik va tabaqali yondashuvni taqozo etadi. Bunda vatanparvarlik komil insonni tarbiyalashga qaratilgan barcha tadbirlarning bosh maqsadi, ta'lim-tarbiya ishlarining ibtidosi bo'lib xizmat qilishi zarurligi tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlarda vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'usining kuchliligi ularning ma'naviy kamolotga bo'lgan ehtiyojlarini mustahkamligini va barqarorligini ta'minlashi ko'rsatib o'tiladi [91;10-13]. Shuningdek «Vatanparvarlik tarbiyasi davlat organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlarining yoshlarda yuksak vatanparvarlik ongi, o'z vatanga sodiqlik hissi, fuqarolik burchini bajarishga, uning manfaatlarini himoya qilishga tayyorgarlikni shakllantirish bo'yicha rejali, tizimli, maqsadga yo'naltirilgan va uyg'unlashgan faoliyatdir»

Tadqiqotchi K.Usmonov fikricha, vatanparvarlikni yanada yaqqolroq tasavvur qilishda kundalik harbiy faoliyatning axloqiy qadriyatlarini tahlil qilish lozim. Bunday fazilatlar qatoriga vatanparvarlik, burch, mas'uliyat, harbiy sha'n, g'urur, insonparvarlik, mehribonlik, birodarlik, e'tiqodlilik, olijanoblik, qat'iyatlilik, fidoyilik, vijdonlilik, ijrochilik, mas'ullik, mustaqillik,



itoatkorlik, jonbozlik, beg‘arazlik, batartiblik, haqqoniylik, professionalizm, odillik, onglilik, mehnatsevarlik, samimiylik kabi ijobiy jihatlar kiradi. Harbiy-jangovar axloqiy qadriyatlar sirasiga mardlik, jasurlik, qahramonlik, botirlik, kuchlilik, shuhratsevarlik, mardonavorlik, bardoshlilik, dovyuraklik va boshqa ijobiy jihatlar kiradi [6;32]. Harbiy faoliyat axloqiy qadriyatlarining uning asosiy jabhalarda namoyon bo‘lishiga ko‘ra, cheklanishi shartli sanaladi, binobarin ushbu axloqiy qadriyatlar asl voqelikda yagona jarayonning turli taraflaridan ishtirok etgani holda, butun harbiy faoliyatga singib boradi.

Bugungi kunda talabalarda vatanparvarlik sifatlarini shakllantirishdagi kuchli psixologik ta'sir ularning kuchli va mard ajdodlari borligiga ishonirish va ularda tarixiy xotirani shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq. Misol uchun, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi bobokalonlarimizning harbiy vatanparvarligini axloqiy ideal sifatida ulug‘lash, ularning vatanparvarlik fazilati bilan bog‘liq axloqiy qarashlari va hayotiy faoliyatlari aks etgan manbalarni chuqurroq tahlil qilish yoshlarda vatanparvarlikni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi [4;33]. Zero, «shonli tariximizda Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur singari buyuk sarkardalarimizning oz sonli qo‘shin bilan dushmanning katta lashkari ustidan g‘alaba qozongani haqida misollar ko‘p. Albatta, ularning harbiy salohiyati, jang maydonida qo‘llagan taktika va strategiyalari – bu alohida mazvzu. Lekin bu ulug‘ sarkardalarning o‘z askarlari qalbiga chinakam vatanparvarlikni, jangovor ruhini singdira olgani biz uchun bugun ham ibratlidir» [2;134].

Bugun yosh avlodni O‘zbekiston xalqining tub manfaatlari, asriy orzu-umidlari, ezgu niyatlari, buyuk maqsadlari ruhida ma'naviy jihatdan barkamol, vatanparvar inson qilib tarbiyalash davrimizning eng muhim va dolzarb masalalaridan biridir. Ajdodlar tajribasini o‘zlashtirish, el-yurtga foydasi tegadigan mehnat faoliyatiga yo‘naltirish, ya'ni kasb tarbiyasi muhim mafkuraviy ahamiyatga ega. Yosh avlod dunyoqarashini kengaytirish, ongini ilmiy asoslangan bilimlar bilan boyitish, ularda jamiyat ravnaqi uchun zarur sifatlarni kamol toptirish pirovard vatanparvarlik tarbiyadir. Vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarning dunyo haqidagi, olamning rivojlanishi qonuniyatlari, insoniy munosabatlar, axloqiy tamoyillar va go‘zallik haqidagi tushunchalarini kengaytirishga xizmat qiladi. U biz qurayotgan jamiyat rivojining o‘ziga xos qonuniyatlari, xalqimizning tub maqsad-manfaatlari asosida shakllantiriladi. Bu jarayonda jamiyat rivojiga turtki beruvchi ilg‘or g‘oyalarni o‘zlashtirish ongli tarzda kechishi, har bir fuqaroning tafakkur va fikrlash tarziga aylanishiga e'tibor qaratish, ayniqsa muhimdir. Shundan ko‘rinib turibdiki, vatanparvarlik

tarbiyasining bosh xususiyatlaridan biri milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning bugungi va kelgusidagi manfaatlarini ifodalovchi sog'lom fikr-g'oyalarning xalq tafakkur tarziga singishidir. Demak, vatanparvarlik tarbiyasi yuksak e'tiqod, imon, Vatan va xalq oldidagi mas'uliyat, fidoyilik singari fazilatlarida namoyon bo'ladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan Vatanni himoya qilishga shaylik ko'rsatkichlarini talabalarda shakllantirish, vatanparvarlik tarbiyasida vazifalar qo'yish uchun va ularni amalga oshirish uchun vositalar izlashda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Alpomish, To'maris, Shiroq kabi xalq qahramonlari, Amir Temur, Ulug'bek, Bobur singari davlat arboblari va sarkardalarimiz, Ibn Sino, Beruniy kabi olimu fuzalolarimiz qarashlariga tez-tez murojaat qilishimiz lozim. Shu bilan birgalikda tarbiya borasidagi jahon standartlariga ham e'tiborni qaratmoq lozim. Respublika O'zbekiston yoshlar agentligi rahbarligida vatanparvarlik g'oyasini targ'ib etuvchi «Vatanparvar» o'yinlari, musobaqalarining o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Talabalarni ijtimoiy-g'oyaviy, ma'naviy-axloqiy, psixologik-irodaviy, jismoniy hamda vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etish ular tomonidan Vatanni himoya qilishdek muqaddas burchni anglashlariga yordam beradi [3;125]. Vatanparvarlik tarbiyasining muhimligi mamlakatimiz xavfsizligi, mudofaa quvvatini, Qurolli Kuchlarini mustahkamlash zaruriyati bilan ham belgilanadi. Shuning uchun ham harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan dolzarb masaladir va O'zbekiston Respublikasining Mudofaa to'g'risidagi qonunida «aholini ma'naviy-axloqiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibini himoya qilishga axloqiy-ruhiy jihatdan tayyorlash» masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan. Vatanparvarlik fuqaro shaxsining muhim tarkibiy qismi bo'lib, unga yoshlikdan asos solingani ma'quldir. Vatanparvarlikni turli usul va vositalar yordamida shakllantirish mumkin. Bunga badiiy asarlar, san'at, ma'rifiy-madaniy tadbirlar misol bo'la olishi mumkin. Shu bilan birga, vatanparvarlik e'tiqodini shakllantirish muayyan ilmiy-nazariy muammolarni o'rganishga bog'liq ekanligini ham unutmash kerak. Binobarin, bu muammolar tizimini bilish, ular o'rtasidagi ilmiy-uslubiy birlik va bog'liqlikni aniqlash tarbiyaviy tadbirlarni samarali amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda milliy-ma'naviy merosning ham o'rni muhimligini yana bir bor ta'kidlash lozim. Chunki harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik e'tiqodini shakllantirishda ajdodlarimizning Ona-Vataniga bo'lgan muhabbat tuyg'ularini, vatan manfaatlarini yo'lida ko'rsatgan fidoyilik va qahramonliklarini misol va o'rnak sifatida keltirish mumkin.



Vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni Vatan himoyasi va harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulodda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma, malakasini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. Vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favquloddagi holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yoshlarda vatanparvarlikni rivojlantirishda pedagogik-psixologik tayyorgarlikni ahamiyati juda yuqori hisoblanadi. Jamiyatda vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat pedagogik-psixologik asoslarga, balki ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy asoslarga bog'liq ekanligiga e'tibor berish zarur. Bu borada vatanparvarlikning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish bilan bog'liq pedagogik tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi / "Xalq so'zi". 2017 yil, 13-yanvar.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – B.452.
3. Karimov I. A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: O'zbekiston. 2015. – B.75.
4. Zamonaviy sharoitda vatanparvarlik tarbiyasini yanada yuksaltirishning dolzarb masalalari: Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi. 2016 yil 20 avgust. – B. 232.
5. Gibb H. A. Studies on the civilization of Islam. Beacon Univ. Press. Boston. 1962. p. 134; Jean-Paul Roux. Ibid. p. 212.
6. Usmonov K. O'zbek xalqi ma'naviy-axloqiy merosida harbiy vatanparvarlik g'oyalarning talqini: Fals. dok. (PhD) dissertatsiyasi. -Toshkent, 2017. – B.161.